UO‘K 821.512.133

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA UCH OG‘A-INI ARXETIP OBRAZI

F.O. Mamtaliyeva

Maqolada uch og‘a-ini arxetip obrazi o‘rganilgan. O‘zbek adabiyotidagi uch og‘a-ini arxetipining xalq og‘zaki ijodidagi, xususan, xalq ertaklaridagi variantlari, uch aka-uka obrazlari tahlil qilingan. Uch og‘a-ini orasida kenja o‘g‘ilning ideallashtirilishi, uning qahramonlik maqomi sabablari keltirilgan. Shuningdek, uch og‘a-ini obrazi mavjud ertaklar syujeti va qahramonlarning xatti-harakatiga ko‘ra tasnif qilinib, ertaklarda uchraydigan umumiy syujet sxemalari ajratilgan.

Kalit so‘zlar: *arxetip, motiv, variant, qahramon yo‘li, syujet motivlari*

В статье изучен архетипический образ трёх братьев. Проанализированы варианты архетипа трех братьев в узбекской литературе в фольклоре, в частности в народных сказках, и образы трех братьев. Приведены причины идеализации младшего сына среди трех братьев и его героического статуса. Также сказки с тремя братьями классифицированы по сюжету, поведению героев, выделены общие сюжетные схемы, встречающиеся в сказках.

Ключевые слова: *архетип, мотив, вариант, путь героя, сюжетные мотивы.*

Arxetip obrazlar (“ibtidoiy shakl”, “boshlang‘ich model”) – bashariyatning jamoaviy ongsizligida mavjud bo‘lgan universal g‘oya, fikrlash modeli yoki tasvirni anglatuvchi psixologik tushuncha sifatida XX asrning dastlabki choragida psixologiya doirasida tadqiq etildi. Keyingi davrda bu atama adabiyot va san’atda ham faol qo‘llana boshlandi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da arxetiplarning universalligi, ularning ildizlari eng qadimgi davrlarga borib taqalishi, arxetiplarni hozirgi zamon adabiyotida ham ko‘rish mumkinligi ta’kidlanadi. Muayyan davrda yashayotgan ijodkor bu ibtidoiy asos (arxetip)ga o‘zining madaniyati, shaxsiyati va hayot tarziga monand mazmun berib boyitishi mumkin [1. B. 37].

Uch og‘a-ini arxetip obrazining ildizlari dunyo xalqlarining qadimgi afsona va rivoyatlariga, xalq ertak va dostonlariga borib taqaladi. Xususan, yunon mifologiyasida “Aid – Poseydon – Zevs”, Firdavsiy “Shohnoma”sida “Kayonush – Purmoya – Faridun”, “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlariga kiruvchi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining Xorazm variantida “Ganjimbek – Mo‘minbek – Odilbek” kabi uch og‘a-ini arxetipi variantlarini uchratamiz. Mazkur qahramonlar uch turli toifada tavsiflanib, ulardan kichigi ideallashtirilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, yunon mifologiyasida Poseydon – dengiz hukmdori, Aid – yer osti saltanati hukmdori, Zevs esa Olimp hukmdori hisoblanadi. Zevs otasi – qudratli Kronni yengib, birodarlarini qutqaradi va saltanatni o‘z qo‘liga oladi. “Shohnoma”da Faridunning ikki katta akasi Kayonush va Purmoyaning omadi kulgani, “*shodliklar komi*”da yashashi ta’kidlanadi. Faridungina Zahhokdan otasi – Otibin uchun qasos olishni uddalaydi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida Jig‘alibekning o‘g‘illari Ganjimbek *dunyoparast,* Mo‘minbek *ap-kupsiz, salav,* Odilbek *otorman, choporman bir bola* sifatida ta’riflanib, ko‘zidan nur, belidan quvvat ketgan ota yurtni Odilbekka topshiradi.

Uch og‘a-ini arxetip obrazining genezisi *uch og‘a-ini* tarzida o‘zbek xalq ertaklarining salmoqli qismida uchraydi. “Kenja”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Erkenja”, “Erjaloljon”, “Bulbuligo‘yo”, “Sumbulqush”, “Qilichqora”, “Shamshirboz”, “Jo‘raxon”, “Xolmirzajon” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalarida balog‘atga yetgan, yangi hayot ostonasidagi uch aka-ukaning sarguzashtlari aks etadi.

Ertak va dostonlardagi uch qahramon arxetip obrazi haqida turli qarashlar mavjud. Daniyalik olim A.Olrik uch sonini ibtidoiy yaratilish, tabiiy xilqat bilan bog‘lar ekan, “boshqa xalqlar an’analarida garchi uch, yetti, o‘n ikki yoxud boshqacha raqamlar mavjud bo‘lsa-da, ular butunlay mavhum miqdorni bildiradi, uch –

an'anaviy hikoyadagi odamlar va obyektlarning maksimal sonidir", deya ta'kidlaydi. Ya'ni, olim borliqda in`ikos etuvchi yer, dengiz, osmon; qushlar, baliqlar, hayvonlar; yer, jannat, do'zax kabi triadaning folklorga muayyan o'zgarishsiz ko'chganligiga urg'u beradi [2. B. 25]. A.Kristensen A.Olrikning "epik tortishish markazi – uchinchida" nazariyasidan ilhomlanib, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Uch personaj va uch marta urinishdan maqsad, qahramon uchun berilgan sinovning murakkab ekanligini ko'rsatishdir. Qahramon billur tog'ga birinchi urinishda yoxud ikkinchi urinishda yetib borsa, o'quvchiga tog'ga yetib borish sinovining mushkulligi haqida tushuncha berilmaydi. Birinchi muvaffaqiyatsizlik shunchaki tasodif bo'lishi mumkin. Lekin ayni shu muvaffaqiyatsizlikning ikki marta takrorlanishi sinovning og'irligini aks ettiradi va kenjaning ustunligini ko'rsatadi" [3. B. 59]. Ko'rinadiki, A.Olrik va A.Kristensen uchlikdagi dastlabki ikki obraz kichik personajning qahramonlik maqomini namoyon qilish uchungina xizmat qilishiga urg'u beradi.

Rus olimi Y.Meletinskiy "Sehrli ertak qahramoni" tadqiqotida jahon xalqlari folkloridagi kenja o'g'il obrazi yuzaga kelishining ijtimoiy tabiatiga e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, kichik o'g'ilning ideallashtirilishi qabilaviy tuzumning parchalanishi davrida yuzaga keladigan sinfiy tengsizlikka qarshi demokratik norozilikning o'ziga xos (ertakga xos) ifodasidir [3. B. 56]. Meletinskiy ertakdagi eng kichik farzandning ideallashtirilishi ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlagan holda, buni dunyo xalqlaridagi *mayorat* va *minorat* tizimi bilan bog'laydi. Ertaklardagi xayoliy uydirmalarning hayot haqiqatiga bog'liqligi jihatidan olimning fikriga qo'shilish mumkin. Unga ko'ra, patriarxal oila vujudga kelishi bilan *minorat* asta-sekin o'z o'rnini *mayorat*ga bo'shatib bordi, katta farzandning oiladagi maqomi, merosga egalik huquqi oshishi natijasida kichik farzandlar bundan jabr ko'rdi [3. B. 68]. Ayni shu jihatdan dunyo xalqlari folklorida kenja o'g'il obrazi jabrdiyda, mazlum qiyofasida paydo bo'ldi.

Y.Meletinskiy turkiy xalqlarda minorat tizimi qat'iy tartib tarzida o'rnatilganligini qator etnik dalillar bilan ta'kidlaydi [3. B. 79]. O'zbek xalqining oilaviy munosabatlari ham azaldan minorat tizimiga asoslangan. Minorat aholining dehqon va chorvador kabi o'rta qatlamiga xos bo'lib, unga ko'ra, ota – oila boshlig'ining vafotidan keyin meros kenja o'g'il yoki kenja qizga qoladi. Bu tizim, asosan, matriarxat an'analari saqlangan xalqlarda uchraydi. Kattalar oila qurgach, o'zlari uchun alohida uy qurib (ota ko'magida), umumiy uyni tark etishadi. Ota-onasi bilan qolgan kichik farzand ularga g'amxo'rlik qilishi, vafotidan keyingi marosimlarini o'tkazishi, otadan qolgan merosni qadrlashi kerak bo'ladi. Shu bois folklorda kenja obrazi oila (mamlakat)ning ishonchli vorisi, an'ana va qadriyatlar davomchisi, mushkul vazifalarni bajaruvchi sifatida aks etishi odat tusiga kirgan. Bunga qadar u bir necha sinovlarni boshdan kechirib, o'zining har jihatdan merosxo'r farzand maqomiga munosib ekanligini isbotlashi, ya'ni initsiatsiyadan muvaffaqiyatli o'tishi zarur.

O'zbek xalq ertaklaridagi uch o'g'il – og'a-ini obrazlarini syujet, qahramonlarning xatti-harakatidan kelib chiqqan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

1) uch og'a-ini bir-biriga kontrast qo'yilmagan ertaklar;

2) kenja o'g'il ideallashtirilgan ertaklar.

Birinchi tipdagi ertaklar ("Qilichqora", "Topqinchilar", "Uch og'ayni taxminchi", "Yarimta no'xat", "Gul Sanobarga nima qildi?", "Uch og'a-ini botirlar", "Shamshirboz") xalq og'zaki ijodida nisbatan kam uchraydi. Ularda aka-ukalarning sifati, jismoniy kuchi bir-biriga zid qo'yilmaydi. Ota (boy, podshoh)ning farzandlariga munosabatida ham katta farq sezilmaydi. Boshlanmadayoq personajlar orasidagi ahil-inoqlik, birlikka alohida urg'u beriladi: "*Qadim zamonda Xorazm yurtida uch og'a-ini bor ekan. Uchalasi ham bir-biriga juda mehribon, bir-biriga jonkuyar ekan*. *Uchalasining ham himmati bor ekan*" [4. B. 234] . "Qilichqora" va "Shamshirboz" ertaklarida har bir qahramonning o'ziga xos kuch-qudratga egaligi syujet rivojida yuz beruvchi qiyinchiliklarni yengishda muhim funksiya bajaradi. Katta o'g'il – Yulduzsanar (Yulduzboz) yulduzlarga qarab bashorat qilish qobiliyati, o'rtancha o'g'il – Daryobog'lar (Obboz) daryolarni bog'lash, kenja o'g'il – Qilichqora (Shamshirboz) qilich bilan har qanday dushmandan o'ch olish xususiyatiga ega. "Uch og'a-ini botirlar"[1*]da "*ucho-*

[1*] "Uch og'a-ini botirlar" ertagi ayrim nashrlarda "Uch og'ayni botirlar" tarzida berilgan.

vi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan” aka-ukalarning poyloqchilik navbatlaridagi harakatlari ham ular orasida raqobat yo‘qligini ko‘rsatadi. To‘ng‘ich botirning “*ukalarim bezovta bo‘lmasinlar*” deb o‘ziga hujum qilgan sherni to‘qayga boshlashi, o‘rtancha botirning ajdardan qo‘rqib emas, akasi va ukasining bezovtalanib qolishidan tashvishlanganligi uchun jim turishi, kenja botirga og‘alarining qorong‘ida uxlashi og‘ir tuyilib, chiroq izlab ketishi uch og‘a-inining bir-biriga nisbatan mehr-oqibatli ekanligini, bundan tashqari aka-ukalarning o‘zaro raqobatchi maqomida emasligini bildiradi. “Topqinchilar” ertagida ota vafotidan keyin o‘g‘illar “*u yerni bo‘lib, ovoti menga, novvoti senga deb janjallashmaslik*”, bahamjihat mehnat qilishga kelishib olishadi.

E’tiborli jihati, ayni tipdagi ertaklarda personajlar uchun *sinov* ota (podshoh) tomonidan berilmaydi. Ya’ni og‘a-inilar ota (podshoh)ga o‘zining jasur va mehribon, dono o‘g‘il ekanligini isbot qilishga urinmaydi. Birodarlar bir-biriga nisbatan raqobatchi bo‘lmagani uchun kenja botirga *fitna* boshqa personaj tomonidan uyushtiriladi *(hasadgo‘y vazir, maston kampir, o‘g‘ri).* “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida botirlarga adovatda bo‘lgan vazir qulay vaziyatdan foydalanib, kenja botirni zindonga soldirishga muvaffaq bo‘ladi. “Qilichqora”da kampir Xalchaoyni aldab, Qilichqoraning jon sirini biladi va tuzoqqa tushiradi. Kenja o‘zining aql-zakovati (“Uch og‘a-ini botirlar”), homiy (“Gul Sanobarga nima qildi? Sanobar Gulga nima qildi?”) yoki og‘alari ko‘magida (“Qilichqora”, “Shamshirboz”) fitna (*zindonga solinish, vaqtincha o‘lim*)dan xalos bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu ertaklarda ham kenja botirning akalariga nisbatan yetakchiligi mavjud. Bu aka-ukalarga berilgan sinovning gradatsiyalanishida ko‘rinadi. Jumladan, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida to‘ng‘ich botir sherni, o‘rtancha botir ajdarni, kenja botir undan ham qiyinroq mushkulot – podshoh xazinasiga tushmoqchi bo‘lgan qaroqchilarni yengib, mamlakatga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan eng katta muammoni hal qiladi. “Tadbirli bola” ertagida oila boqish uchun boyning xizmatiga kirgan akalari quloqlari kesilib, quruq qo‘l bilan qaytgani holda, kichik o‘g‘il zolim boyni yengib, katta mol-mulkni qo‘lga kiritadi va oilasini kambag‘allikdan xalos etadi. “Kenja” ertagida podshoning ikki o‘g‘li kunbotishdagi malikaning oldiga ketgani holda tirik qaytmaydi, kenja esa akalarining qasdini oladi, malikaga erishadi. Kenja botirning “baxt qushi”ni akalaridan boshlab tanlashi (“Uch og‘a-ini botirlar”), Qilichqora va Shamshirbozning yo‘lda duch kelgan sinovga hamisha hozirligi, qo‘lga kiritilgan mukofot – malikalarga dastavval kattalarni munosib ko‘rishi (“Qilichqora”, “Shamshirboz”), taxtda qolgan kichik o‘g‘ilning “Borsa kelmas” yo‘liga ketib qaytmagan og‘alarini qutqarishga borishi-yu, akalari o‘ta olmagan sinovdan faqat uninggina o‘ta olishi (“Gul Sanobarga nima qildi?”), aql-zakovati bilan devni yengishi (“Yarimta no‘xat”)da kenjaning qahramonlik qiyofasi namoyon bo‘ladi. Himmati va jasorati uchun u eng oliy mukofotga erishadi (*go‘zal malikaga uylanish, podshohning eng sevimli kuyovi bo‘lish, taxt vorisiga aylanish*).

Ushbu tipdagi ertaklarda uchraydigan syujet motivlarini quyidagi sxema asosida ko‘rish mumkin: Safar *(safarga da’vat)* → sinov(lar) → mukofot olish *(uylanish, taxt vorisiga aylanish)* → fitnaga uchrash *(faqat kenja fitnaga uchraydi)* → qiyinchiliklarni yengish → qaytish.

Ma’lumki, safar motivi syujetda o‘ziga xos o‘rin egallab, ertak va doston qahramonlari turli maqsad (sabab) bilan safarga chiqadi [5. B. 5]. Aksar ertaklarda safarga da’vatchi sifatida ota harakatlanadi. Jumladan, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida ota “*Baxtingiz yo‘lda, topib olmoq uchun dunyoni ko‘rgani yo‘lga chiqingiz, dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo‘lmaysiz*”, deya botirlarni safar qilishga chorlaydi. Dunyo tanish (*baxt izlash, ov qilish, ota vafotidan keyin o‘zlikni topish*) maqsadida yo‘lga otlangan yigitlar sinov(lar)ga uchraydi, sinov(lar)ni botirlik, topqirlik bilan yengadi. Mukofotlangan, o‘zidan ustun kelgan qahramonga hasad, qasd qilgan personajning makr-hiylasi bilan kenja qiyinchiliklarga duch keladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, “Uch og‘a-ini botirlar”da vazirning hiylasi bilan kichik botir zindonga tushadi, “Qilichqora”-da kampirning nayrangi bilan Qilichqoraning jon siri dushmanga ayon bo‘ladi. Ushbu vaziyatda Qilichqoraga akalar yordamga keladi. Turfa sarguzashtlarni boshdan kechirgan qahramonlar uyga birgalikda qaytadi.

Xalq og‘zaki ijodida ikkinchi tipdagi – kenja botir ideallashtirilgan ertaklar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu tipdagi ertaklarda (“Bulbuligo‘yo”, “Erkenja”, “Kenja botir”, “Xolmirzajon”, “Ota vasiyati”, “Erjaloljon”, “Non qudrati”, “Boyvachcha bilan pari”, “Cho‘loq bo‘ri”, “G‘ulombachcha”, To‘qliboy” va boshqalar) uchinchi o‘g‘il, kenja kuyov yoki o‘gay o‘g‘il ideal qahramon sifatida gavdalanadi. Kichik o‘g‘il akalariga nisbatan aql-zakovatli, kuch-qudratli, jasur va mehribon bo‘lib, hamma vaqt sinov jarayonida tasvirlanadi. Birinchi tipdagi ertaklarda ham kenja o‘g‘ilning akalariga nisbatan ustunligini aytdikki, ota (podshoh)ning farzandlariga teng munosabatda bo‘lishi, uch og‘a-ini o‘rtasida raqobatning yo‘qligi, qolaversa, qahramonlar bir yo‘lni tanlashi – sarguzashtlar bir makon, zamonda tasvirlanishi, har bir botir uchun alohida mukofot (*malika, mansab-amal*) mavjudligi jihatidan ikkinchi tipdagi ertaklardan farqlanadi.

Kenja botir ideallashtirilgan ertaklar boshlanmasidayoq kichik o‘g‘ilning o‘qish va o‘rganishda sustkashlik qilmasligi, og‘ir vaziyatda hal qiluvchi qaror chiqara olishi, mashaqqat va sinovlardan qo‘rqmasligi ta’kidlanadi. U *oqni oq, qorani qora deb taniydigan bo‘lib o‘sadi* (“Gulboy”), *biri bog‘dan biri tog‘dan keladigan akalari orasida tuzukrog‘i* (“Yer qattiq, osmon yiroq”), *birodarlar o‘rtasida botiri* (“Pahlavon Rustam)”, *qo‘rg‘on himoyachisi* (“Erkenja”) sifatida beriladi. “Erjaloljon”da qahramonga duch kelgan devlarning “*Talpinma otim, talpinma itim, bu yerda Erjaloljon tugul uning arvohi ham yo‘q*”, deya hadiksirashi, “Erkenja” ertagida devning o‘zi yoqtirgan malikani olib kelishni faqat Erkenja uddalay olishini bilgani uchun uni otasidan so‘rab olishi kenja botirning jasoratli va uddaburon ekanligini anglatadi. “Bulbuligo‘yo”, “Kenja Botir”, “Tilla behi”, “Badalqorachi”, “Cho‘loq bo‘ri”, “Non qudrati” kabi ertaklarda uch birodarning poyloqchilik navbatidagi harakatlaridan ham kichik o‘g‘ilning qiyinchiliklar oldida yengilmasligi ko‘rinadi: o‘g‘irlik sirini bilish uchun navbatma-navbat poyloqchilik qilgan ikki aka qanchalik chiransa-da uxlab qoladi, uchinchi o‘g‘il esa mudroq bosmaslik, sergaklik uchun “*cho‘ntagidan pichog‘ini olib, jimjilog‘ini (ayrim ertaklarda tovonini) kesadi, kesgan joyiga tuz-qalampir bosadi*”.

Ushbu tipdagi ertaklarda qahramonning yo‘li quyidagicha sxemalanadi:

Safar → uch yo‘l → kenja botir sarguzashtlari → homiy bilan uchrashish → mukofotga erishish (*malika, toj-u taxt, qimmatbaho buyum*) → akalarni qutqarish → kenjaga xiyonat → homiy yordamida qutqarilish → qaytish (*vorislik*);

I. *Safar (safarga da’vat).* An’anaviy tarzda safarga da’vatchi ota (boy, podshoh) bo‘lib, qahramonlar sehrli narsa yoki baxtini izlab yo‘lga chiqadi. “Sirli oynak”, “Erjaloljon” ertaklarida o‘g‘illar “*shaharda bo‘lsa ham, qishloqda bo‘lsa ham o‘z baxtini o‘zi topish*”ga undaladi. “Bulbuligo‘yo”, “Badalqorachi”, “Tilla behi”, “Cho‘loq bo‘ri”, “Jo‘raxon”, “Yer qattiq, osmon yiroq”, “Kenja botir”[1*] da oila (mamlakat, shahar) uchun qadrli bo‘lgan qimmatbaho yoki yagona bisot (*tilla qush, tilla barg, tilla behi, toy, olma*) ning yo‘qolishi yoki uni o‘g‘irlashga urinish qahramon(lar) uchun safarga da’vatdir. Ota (boy, podshoh) tomonidan yer yuzining qaysi burchagidan bo‘lsa ham sehrli hayvonni (tilla qush, ot va boshqalar) topish sharti qo‘yiladi, berilgan tuz-namakka rozi bo‘lish, ishonchni oqlash (“Tilla behi”); taxtga chiqarib, podsholikka sherik qilish (“Bulbuligo‘yo”), tirik qolish (“Cho‘loq bo‘ri”) shartni bajarishga bog‘liq.

“Jahon xalqlari miflari” ensiklopediyasida initsiatsiya nuqtayi nazaridan faqat kenja qahramon bo‘la olishi, faqat uning uchungina mavjud vaziyatni o‘zgartirish orqali katta odam maqomiga o‘tish imkoni borligi ta’kidlanadi [6. B. 447]. Tahlil etilayotgan personajlar oilada o‘rnini topa olmagan, manfaatlari tan olinmagan kichik o‘g‘il yoki o‘gay farzand, kenja kuyov sifatida harakatlanadi. “Cho‘loq bo‘ri”da *ikki o‘g‘il kulcha-ko‘machini g‘amlab yo‘lga chiqqani holda, eng kichigi hech narsa olmasdan yig‘lab ketadi.* “Kenja botir”da xotini kambag‘al oiladan bo‘lgani uchun podshoh uchinchi o‘g‘ilni yoqtirmaydi, hatto tilla olmasining yo‘qolishida undan gumon qiladi. Olma o‘g‘risini poylashni so‘raganda, “sendan katta odamlar, ikkala akang ushlay olmadi-yu, sen qanday ushlar eding!” deb koyigani botirni *seskantiradi, bilaklarini kuchga to‘ldiradi, yuragiga o‘t yoqadi.* Kichik botirda

[1] *“Kenja botir” nomli ikkita alohida ertak mavjud bo‘lib, shu nomdagi ikkinchi ertakda uch og‘a-inining sarguzashtlari ov qilish maqsadida yo‘lga chiqish bilan boshlanadi.

o‘z maqomidan qoniqmaslik, kuch-qudratini isbotlash, boshqalar bilan teng ko‘rilish ehtiyoji mavjudligi bois u yo‘qolish sirini qanday bo‘lmasin bilishga ahd qiladi. Sehrli otning podshoh haqidagi fikrlari va akalaridan ko‘rgan xo‘rliklarini yodga olgan yigit “halol mehnat bilan kun ko‘rish” maqsadida o‘zga yurtga bosh olib ketadi. “To‘qliboy” ertagida o‘gayligi (otasi bozordan topib olib kelgani) uchun, onasi jodugar kampir bilan kelishib, To‘qliga turli xiylalar uyushtiradi, To‘qli o‘zidan muruvvat ko‘rgan sehrli ot yordamida qutulib, boshqa yurtga ketadi va ikki bojasi bilan raqobatlashadi. “G‘ulombachcha”da onasi G‘ulombachchani boqa olmagach, o‘g‘lini podshoh qizi uchun xizmatchi sifatida pullaydi, zehn-idroki bois malika nazariga tushgan yigit vazir, lashkarboshining o‘g‘illari bilan bellashadi. Malika shartiga binoan uchovlon safarga otlanadi.

II. *Uch yo‘l.* Xalq ertaklarida bir maqsad sari ilgarilayotgan birodarlar qarshisidan uch ayrilish yo‘l chiqadi. M.Baxtinga ko‘ra, “folklordagi yo‘l shunchaki yo‘l emas, balki har doim yo bir butun hayot yo‘lini, yo hayot yo‘lining muayyan bir qismini ifodalab keladi” [7. B. 87]. Bu yo‘l kelajak uchun tanlov, butun umr ramzidir. Og‘a-inilarning tanlovi ularning xarakter xususiyatlarini ifodalaydi. To‘ng‘ichi “borsa kelar”, o‘rtanchasi “borsa kelar-kelmasi gumon” (ayrim ertakda “borsa xatar”)ni ko‘zlaydiki, kenja “borsa kelmas”ga mahkum. Ikki akaning tabiatida yengil hayotga moyillik borligi, xudbinligi uchun “borsa kelmas” yo‘liga sira yaqinlashmaydi.

Aksariyat xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘rtancha o‘g‘il obrazi to‘ng‘ich o‘g‘il soyasidagi personaj sifatida harakatlanadi.

“Bulbuligo‘yo” ertagida mashaqqatlardan qo‘rqqan o‘rtancha o‘g‘il “borsa xatar”dan “borsa kelar”ga – katta akasining yo‘liga o‘tib borishi, “Jo‘raxon”da ikki og‘aning “borsa kelar” ko‘chalaridagi qiyinchiligi o‘rtancha o‘g‘il obrazi soyada (to‘ng‘ichning soyasida) qolishi, umuman olganda, o‘rtancha tipi yo‘qolib ketishini ko‘rsatadi. “Non qudrati”da uch yo‘l qarshisida o‘ylangan ikki aka qorni, boshi og‘riyotganini bahona qilib, uyga qaytib ketadi. Yoxud syujet rivojida og‘alarning o‘zaro kelishgan holda ukaga qarshi harakat qilishi to‘ng‘ich va o‘rtancha o‘g‘il obrazlarini birlashtirib yuboradi. Natijada to‘ng‘ich va o‘rtancha obrazlari birlashadi. Qiyoslash va zidlash “to‘ng‘ich” – “o‘rtancha” – “kenja” o‘rtasida emas, “katta(lar)” – “kichik” orasida amalga oshiriladi. Ota (boy, podshoh)ni qiziqtirgan qiymati baland – tilla qush, sehrli toy kabi sirli jonzotlar, tabiiyki, osonlik bilan qo‘lga kiritilmaydi. Kenja qahramon tabiatida mashaqqatlarga tik qarash aks etgani, qolaversa, unda mavjud vaziyatni o‘zgartirish ehtiyoji kuchliligi bois tanlov imkoniyati bo‘lganda ham *“qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan”* “borsa kelmas”ni tanlaydi. U maqsadi ayni “borsa kelmas” yo‘lda hal bo‘lishini biladi. Jumladan, “Guluyalar va Qalandarbek” ertagida Qalandarbek yo‘llar qarshisida janjallashayotgan og‘alaridan farqli ravishda, o‘z ixtiyori bilan “borsa kelmas” tarafga jo‘nab, ularga ikkita nisbatan yaxshi bo‘lgan yo‘llarni qoldiradi.

Ayrim ertaklarda *uch yo‘l motivi* aynan uchramasa-da, qahramonlarning tashabbusi, ular qarshisiga qo‘yilgan taklif va imkoniyatning o‘zi *qahramon yo‘li* semasini bildiradi. Dushmanga qarshi tura olish (“Pahlavon Rustam”), qalandarga berib yuborilish (“Xursanjon bilan Latifaxon”), ota vafotidan keyin go‘rni uch kecha poylay olish (“Ota vasiyati”, “Xolmirzajon”), meros – toj-taxt (1), xazina (2), sehrli buyum/qimmatli maslahat (3)dan (“Gulboy”, “Sehrli pichoq”, “Kenja o‘g‘il”) qaysi birini tanlashi personajlarning kelajak hayotini belgilaydi. “Pahlavon Rustam” ertagida ota o‘g‘illaridan qaysi biri mard va botir ekanligini sinash maqsadida ajdarni o‘ldirib kelish topshirig‘ini beradi. Qo‘rqqanini sezdirmagan og‘alar ajdarni ko‘rishi bilan orqasiga qaramay qochadi. Rustamning navbati kelganda, “*kuchini sinash payti yetgan*”iga xursand bo‘lib yo‘lga otlanadi, u uchun bu topshiriq kuch-qudratini namoyish qiladigan qulay imkoniyat edi. “Xursanjon bilan Latifaxon” ertagida qalandar podshoning farzand ko‘rishi evaziga bir farzandini berish shartini qo‘yadi. Faqatgina kichik xotin yig‘lab-yig‘lab, farzandini qalandar bilan jo‘natadi. “Kenja o‘g‘il” ertagida kichik o‘g‘il otasidan qolgan narvoncha orqali qator muvaffaqiyatlarga erishib, malikaga uylanadi. “Sehrli pichoq”da o‘limi yaqinlashgan ota uch o‘g‘il Vaqqos, Taqqos, Paqqosni huzuriga chorlab, mol-mulk yoki gapdan birini tanlashlarini so‘raydi. Katta va o‘rtancha o‘g‘il *“gap bo‘lsa yetarlicha bor”* deya boylik, qo‘y-echkilarni so‘raydi. Paqqos gapni – otaning maslahatini tanlaydi.

Maslahatga ko‘ra, Paqqos g‘orda yashovchi temirchi ustaga shogird tushishi, temirchilik sirlarini o‘rgangach, ustozidan pichoq yasab berishini so‘rashi zarur. Akalarining boyligi tugaganda ham, pichoq yo‘qolmaydi, uni maqsadiga yetishtiradi. Og‘alar nazarida qadrsiz baholangan narsalar kichik farzandga baxt, shon-sharaf keltiradi.

III. *Kenja botir sarguzashtlari.* Yo‘l tanlashdan keyingi voqealar kenja tevaragida – “borsa kelmas” makonda tasvirlanadi. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay yo‘l bosgan qahramon goh yovuz devlarga qarshi ayovsiz jang qilsa, goh go‘zal malikaga yetishish uchun podshoh tomonidan berilgan sinov(lar)ni bajaradi. To‘ng‘ich va o‘rtancha tanlagan yo‘l muhim bo‘lmagani uchun syujet rivojida “*ikki kattasi yo‘l yuraversin, gapni kenjadan eshiting*”, deya tushirib qoldiriladi. Ayni shu epizodga qadar ro‘y bergan voqealar bevosita kichik o‘g‘il qahramonliklariga turtki sifatida qaralishi mumkin.

IV. *Homiy bilan uchrashuv*. Kenja qanchalar ideallashtirilsa ham, uning-da kamchiliklari va mushkul vaziyatdan chiqa olishga qurbi yetmagan vaqtlari mavjud. Ayni shu damda kenja o‘g‘ilga homiy duch keladi. Mushkul vazifalarni bajarishda kenja o‘g‘il homiy yordamidan foydalanadi. Qahramonning beminnat yaxshiligiga javob qaytadi: o‘z vaqtida berilgan taom, amaliy yordam evaziga kichik botir doimiy homiyga ega bo‘ladi. Homiy syujetda personajga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, qiyinchiliklardan ogoh etuvchi sifatida harakatlanadi. Bo‘ri (“Cho‘loq bo‘ri”), maymun (“Bulbuligo‘yo”), ot (“Ota vasiyati”, “To‘qliboy”), kampir (“Yer qattiq, osmon yiroq”), maxluq (“Non qudrati”), pari kabi homiy obrazlar yordamida kichik botir sinov-shartlarni bajarishning uddasidan chiqib, initsiatsiya bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tadi.

V. *Mukofot olish*. Sinovlardan o‘tgan botir mukofot (yarim podshohlik, podshohlik, malika, qimmatbaho-sehrli buyum)ni qo‘lga kiritadi.

VI. *Hamrohlarni qutqarish.* Kenja botir himmati baland, tanti va saxiy qahramon sifatida harakatlanadi. Ayni shu jihati orqali uning oilaviy munosabatlarda xudbin emasligi, borini baham ko‘rishi – keng fe`lligi, oila boshlig‘i bo‘lishga loyiq farzand ekanligiga ishora beriladi. U bisotidan ayrilgan, somsapazga, kallapazga shogird tushgan (ayrim ertaklarda o‘t yoquvchi, gadoy bo‘lib qolgan) akalarini qutqarib, mukofotiga sherik qiladi.

VII. *Kenjaga xiyonat.* Qahramonning muvaffaqiyatlariga hasad qilgan, ota (boy, podshoh) oldida zaif va nochorligi bilinib qolishi, eng muhimi, merosdan mahrum bo‘lishdan qo‘rqqan og‘alar (ayrim ertaklarda katta bojalar) manfaat yo‘lida birlashadi. Hiyla yo‘li bilan kenjani yengib, qo‘lga kiritilgan sehrli narsalar – mukofot(lar)ni tortib olishadi. Shu yo‘l orqali o‘zlarini initsiatsiyadan o‘tganligini, kenjaning esa o‘ta olmaganligini isbotlashga urinishadi. Asosan, to‘ng‘ich o‘g‘il o‘rtanchasini o‘ziga sherik qilishga undaydi.

VIII. *Homiy yordamida qutqarilish*. Ko‘zi o‘yib quduqqa tashlangan (“Erjaloljon”, “Sumbul qush”), oyoq qo‘li bog‘lab ketilgan (“Yer qattiq, osmon yiroq”), daryoga tashlangan (“Non qudrati”) kenjaga yana homiy yoki mushkulotda topilgan yangi do‘stlar yordamga keladi va uni qiyinchilikdan qutqaradi.

IX. *Qaytish*. Homiy yoki yangi do‘stlar yordamida uyga qaytgan qahramon o‘zining asl maqomini tiklab, oilaning haqiqiy vorisiga aylanadi. Unga qarshi bo‘lgan og‘alar otalari va xalq oldida yuzi shuvut bo‘lgani holda, kenja *murod-maqsadiga yetadi.*

Ko‘rinadiki, uch og‘a-ini arxetip obrazi ertaklarda bir qator syujet motivlari va motiv-obrazlar bilan birga qo‘llanadi. Yuqorida ularning eng muhimlarini ko‘rib o‘tdik. Ushbu arxetip obraz *uch og‘ayni* tarzida hozirgi nasrga transformatsiyalangan. Navbatdagi vazifamiz mazkur arxetipning zamonaviy o‘zbek nasridagi variatsiyalarini tadqiq etishdan iborat. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek nasridagi uch og‘a-ini arxetip obrazining yuqorida sanalgan motivlar (*sinov, yo‘l, fitna, homiy, mukofot* va boshqalar) bilan bog‘lana olish imkoniyatlarini ham keyingi ishlarimizda tahlilga tortamiz.

Adabiyotlar:

1. *Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева* М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 b.

2. Olrik A. Epik laws of Folk narrative. [*Online*]. URL: https://a1009-81318578.cluster14.canvas-user-content.com (Murojaat etilgan sana: 25. 09. 2023)

3. *Мелетинский Е.М.* Герой волшебной сказки. – Москва-Санкт-Петербург: “Академия Исследований Культуры”, “Традиция”, 2005. – 240 с.

4. Олтин бешик. Эртаклар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 256 б.

5. *Қуронов Д.* Адабий ўйлар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – 88 б.

6. Инициация и миф // В кн.: Мифы народов мира. Энциклопедия. / Гл.ред. С.А.Токарев – Москва: Электронное издание, 2008. – С .446–447.

7. *Бахтин М*. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 288 б.

8. *Шералиева М.* Эркин Аъзам насрида инициация мотиви // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2019. – №1(42). 73–79.

9. *Sheraliyeva M*. Monomif strukturasi va Erkin A’zam asarlarining syujet qurilishi // Adabiy meros, 2022. – № 2. – B. 88–94.

10. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 152 b.

11. Кулса-гул, йиғласа – дур. Эртаклар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 304 б.

12. Илон пари. Ўзбек халқ фантастикаси. /Тўплаб, нашрга тайёрловчилар ва сўнг сўз муаллифлари М.Муродов, Ҳ. Шайхов. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1985. – 192 б.

13. Сув қизи. Фантастик эртаклар. – Тошкент: “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – 328 б.

THE ARCHETYPE IMAGE OF THE THREE BROTHERS IN UZBEK FOLK-TALES

Fotima O. Mamtaliyeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 57-64.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: archetype, motive, variant, hero’s way, plot motives.

The roots of the archetypal image of the three brothers go back to ancient legends and legends, folk tales and epics.

The genesis of the archetypal image of three brothers can be found in a significant part of Uzbek folk tales in the form of three brothers. “Uch og‘aini botirlar” (“Three brave brothers”), “Erjaloljon” (“Erjalaljon”), “Bulbuligo‘yo” (“Bulbuligoyo”), “Sunbul qush”(“Sunbul bird”), “Qilichqora”(“Kilichkara”), “Shamshirboz” (“Swordsman”), “Jo‘raxon”(“Jorakhan”), “Xolmirzajon” (“Kholmirzajon”) the examples of folklore show the adventures of three brothers who have reached adulthood and are on the threshold of a new life.

In our opinion, the emergence of the image of the youngest son in Uzbek folk tales is related to the minaret system. The family relations of the Turkic peoples have been based on the minaret system since time immemorial. The tower belongs to the middle class of the population, such as farmers and herdsmen, according to which, after the death of the father - the head of the family, the inheritance goes to the youngest son or daughter. This system is found mainly in nations where the traditions of matriarchy have been preserved. When adults start a family, they build a separate house for themselves (with the help of their father) and leave the common house. A small child who is left with his parents will have to take care of them, perform the rituals after his death, and appreciate the legacy left by his father. Therefore, in folklore, it is customary for the younger character to be reflected as a reliable heir of the family (country), a successor of traditions and values, and a performer of difficult tasks. Until then, he needs to go through several tests and prove that he is worthy of the status of heir child in all respects.

The images of the three sons and brothers in Uzbek folk tales can be classified as follows based on the plot and the behavior of the characters:

1) fairy tales in which the three brothers are not contrasted with each other;

2) fairy tales in which the youngest son is idealized.

The plot motifs found in the first type of fairy tales can be seen according to the following scheme: Journey (invitation to travel) → trial(s) → receiving a reward (marriage, becoming the heir to the throne) → encountering a conspiracy (only minor intrigue occurs) → overcoming difficulties → return .

In folklore, the second type - the idealized fairy tales of the younger hero - occupies an important place. In fairy tales of this type the third son, younger son-in-law or stepson is embodied as an ideal hero. The younger son is intelligent, strong, brave and kind to his brothers, and is always portrayed as a test.

In this type of fairy tales, the way of the hero is planned as follows:

Journey → three paths → adventures of the younger hero → meeting with the sponsor → achieving the reward (princess, crown and valuables) → saving the brothers → betraying the younger → rescue with the help of the sponsor → return (succession).

References:

1. Kuranov, D., Mamajanov, Z., Sheralieva, M. (2013) *Adabiyotshunoslik lug‘ati* [Literary dictionary]. Tashkent: Akademnashr.

2. Olrik, A. *Epik laws of Folk narrative* [Epik laws of Folk narrative]. https://a1009-81318578.cluster14.canvas-user-content.com (Date of Access: 25.09.2022)

3. Meletinskij, E.M. (1958) *Geroj volshebnoj skazki. Proiskhozhdenie obraza* [Hero of a fairy tale. The origin of the image]. Moscow: Izdatelstvo Vostochnoj literatury.

4. (1985) Oltin beshik [Golden cradle]. In: Ertaklar [Tales]. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

5. Kuranov, D. (2016). *Adabiy o‘ylar* [Literary thoughts]. Tashkent: Turon zamin-ziyo.

6. Tokarev, S.A. (ed.) (2008) Iniciaciya i mif [Initiation and myth]. In: Mify narodov mira. [Myths of the peoples of the world]. Encyclopedia. Moscow: Elektronnoe izdanie. Pp. 446-447.

7. Baxtin, M. (2015) *Romanda zamon va xronotop shakllari* [Time and chronotope forms in the novel]. Tashkent: Akademnashr.

8. Sheraliyeva, M. (2019) *Erkin A’zam nasrida initsiatsiya motivi* [The motif of initiation in the prose of Erkin A’zam]. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar. No 2 (42). Pp. 73-79.

9. Sheraliyeva, M. (2022) Monomif strukturasi va Erkin A’zam asarlarining syujet qurilishi [Monomythic structure and plot construction of Erkin Azam’s works]. *Adabiy meros*. No 2. Pp. 88-94.

10. (2018) *O‘zbek xalq ertaklari* [Uzbek folk tales]. Tashkent: Yoshlar nashriyot uyi.

11. (1983) *Kulsa-gul, yig‘lasa-dur* [If he laugh – a flower, if he cries-gem]. In: Ertaklar [Fairy tales]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

12. (1985) *Ilon pari* [Snake fairy]. In: O‘zbek xalq fantastikasi [Uzbek folk fiction]. Tashkent: Yosh gvardiya.

13. (1966) *Suv qizi* [Water girl]. In: Fantastik ertaklar [Fantastic tales]. Tashkent: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti.

Muallif haqida ma’lumot:

MAMTALIYEVA Fotima Odiljon qizi – Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunoslig kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: fotimaxonmamtaliyeva@gmail.com